TOSHKENT VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI

# TOSHKENT VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI

*2022- YIL YANVAR-IYUN*
*(DASTLABKI MA’LUMOT)*



Sanoat statistikasi
bo‘limi
Tel.: 71-202-86-66

# Toshkent viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2022-yil yanvar-iyun oylarida)

Dastlabki ma’lumotlar bo‘yicha 2022- yilning yanvar-iyun oylarida viloyat korxonalari tomonidan 43,6 trln. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2021- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 108,6 %ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to‘g‘ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (87,5 %)ni hamda ishlab chiqarish hajmi 38,1 trln. so‘mni tashkil etdi.




***B** – Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, **C** - Ishlab chiqaradigan sanoat **D** - Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash, **E** - Suv bilan ta’minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish.*

## Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* *% da*




Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o‘sishining asosiy omili bo‘lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning – 9,1 %ga, elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalashning – 24,4 %ga o‘sishi kuzatildi.

***Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi** *ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o‘zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko‘rsatkichdir.*

# Tog‘-kon sanoati

*trln. so‘m*







*FHI % da*

Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2022- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1,7 trln. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 3,9 %ini tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi,**
(yanvar-iyun oylarida, %da)

2021- y.







2022- y.

## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

**O‘tgan yilning mos davriga nisbatan,** *%da*

| Ko‘mir | Kaolin | Tabiiy gaz |
|---|---|---|
|  |  |  |

## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar-iyun | 2022- yil yanvar-iyun | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Ko‘mir,** *ming t.* | 918,5 | 1112,3 | 193,8 |
| **Chaqiq tosh,** *ming t.* | 78,6 | 75,9 | -2,7 |
| **Kaolin,** *ming t.* | 39,3 | 52,7 | 13,4 |

## Ishlab chiqaradigan sanoat

trln. so‘m




FHI, *%da*




2022- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 18,3 trln. so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 86,9 %ini tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, (yanvar-iyun oylarida, %da)**

2021- y.







2022- y.

O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 1,7 %ni (2021- yilning yanvar-iyun oylarida – 1,1%), o‘rta-yuqori texnologiyali – 9,5 % (8,8%), o‘rta-quyi texnologiyali – 52,6 % (54,8 %) va quyi texnologiyalisi – 23,0 % (21,8 %)ni tashkil etdi.




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish, ta‘mirlash va o‘rnatish, avtotransport vositalari, yarim pritseplar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 7,7 % (2021- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 122,5 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 46,4 % (2021- yilning yanvar- iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 108,9 %), to‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 9,0 % (2021- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 102,3 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 12,5 % (2021- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 115,5 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 6,3 % (2021- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 103,1 %)ni tashkil etdi.

## Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o‘sish sur’ati

2022- yilning yanvar-iyun oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 52,8 ming dona avtomobil dvigitellari (2021- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 64,9 %ga oshgan), 8,5 ming tonna kalava ip (10,1 %ga kamaygan), 15,1 mln. litr pivo mahsulotlari (16,2 %ga kamaygan) hamda 87,3 ming tonna yumshoq bug‘doy va spelta uni (0,6 %ga oshgan)ligi kuzatildi.

### O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, %da

**O‘simlik yog‘I (tozalangan)**




**Pishloq va tvorog**




**Yumshoq bug‘doy va spelta uni**




**Pivo**




**Aroq**




**Uzum vinosi**




**Sement**




**Paxta chigiti**




**Kalava ip**



## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar-iyun | 2022- yil yanvar-iyun | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Avtomobil dvigatellari,** *ming dona* | 31,5 | 52,0 | 20,5 |
| **Yumshoq bug'doy va spelta uni,** *ming t.* | 86,8 | 87,3 | 0,5 |
| **Shakar,** *ming t.* | 55,5 | 92,6 | 37,1 |
| **Paxta tolasi** *ming t.* | 15,4 | 14,0 | -1,4 |
| **Portlandsement,** *ming t.* | 902,0 | 919,8 | 17,8 |

## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Texnologik jihozlarni kapital qayta tiklash ishlari, kimyo korxonalarida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish hajmini oshirish imkonini berib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan etil spirti (2021-yilning yanvar-iyun oylariga) 104,1 % mahsulotida o'sish ko'rsatkichlari qayd etildi.

Shuningdek, ammoniy nitrat (2021-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 90,4 %) mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatida pasayish kuzatildi.

**O'tgan yilning mos davriga nisbatan,** *%da*

**Ammoniy sulfat** | **Ammoniy nitrat** | **Etil spirti**



## Metallurgiya sanoati

(yanvar-iyun)




Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-iyun oylarida metallurgiya sanoati ulushi 48,2 %ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 108,9 %ni va ishlab chiqarish hajmi 20992,7 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

## Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

(yanvar-iyun oylarida)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-iyun oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 3,6 %ni, uning fizik hajm indeksi esa 99,1 %ni, hajmi 1573,2 mlrd. so‘mni tashkil etdi.



## Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

(yanvar-iyun oylarida)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko‘ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 9,8 %ni tashkil etgan, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 99,1 %ni, ishlab chiqarish hajmi 4288,1 mlrd. so‘mni tashkil etdi.



**FHI %da**




## Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

(yanvar-iyun oylarida)

**FHI % da**






Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-iyun oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 1,7 %ni, uning fizik hajm indeksi esa 2,5 %ga oshgan va ishlab chiqarish hajmi 736,3mlrd. so‘mni tashkil etdi.

## To‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

(yanvar-iyun oylarida)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022-yilning yanvar-iyun oylarida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 6,4 %ni tashkil etgan bo‘lsa, uning fizik hajm indeksi 75,2 %ni tashkil etgan va ishlab chiqarish hajmi 2778,8 mlrd. so‘mni tashkil etdi.



*FHI %da*




## Kiyim ishlab chiqarish sanoati

(yanvar-iyun oylarida)



*FHI % da*




2022- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko‘ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,9 %ni, fizik hajm indeksi esa 115,5 %ni tashkil etgan va ishlab chiqarish hajmi 1250,8 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

## Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

(yanvar-iyun oylarida)

2022- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko‘ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 5,4 %ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 109,0 %ni tashkil etgan va ishlab chiqarish hajmi 2357,6 mlrd. so‘mni tashkil etdi.






## Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish

(yanvar-iyun oylarida)







2022- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko‘ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,04 %ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 344,9 %ni tashkil etgan va ishlab chiqarish hajmi 15,6 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

## Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish

(yanvar-iyun oylarida)




2022- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko‘ra, avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,1 %ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 186,5 %ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 47,4 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

## Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

(yanvar-iyun oylarida)

2022- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko‘ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,0 %ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 117,6 % ga oshgan va ishlab chiqarish hajmi 886,4 mlrd. so‘mni tashkil etdi.



## <u>Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash</u>

(yanvar-iyun oylarida)




Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3,4 trln. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (7,9 %ini) tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-iyun oylarida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta’minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 25,8 %ga oshganligi kuzatildi.

**Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi,**

(yanvar-iyun oylarida, %da)




## <u>Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish</u>

| **Sanoat mahsulotlari** | **2021- yil** yanvar-iyun | **2022- yil** yanvar-iyun | **Farqi +/-** |
|---|---|---|---|
| **Elektroenergiya,** *mln.kVt.s* | 7622,3 | 8353,2 | 731,0 |
| **Issiqlik energiyasi,** *ming gkal* | 2036,4 | 1885,9 | -150,5 |
| **Ko‘mirni yer ostida gazga aylantirish natijasida hosil bo‘lgan** | 150236,0 | 17002,0 | -133234 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| gaz, *ming kub. m.* | | | |

## Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish

(yanvar-iyun oylarida)




Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 0,2 trln.so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,3 %ini) tashkil etdi.

## Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi,

(yanvar- iyun oylarida, %da)




| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar-iyun | 2022- yil yanvar-iyun | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Oqova suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar,** *mlrd.so‘m* | 26,2 | 26,7 | 0,5 |
| **Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo‘yicha taqsimlash xizmatlar, mln.so‘m** | 59,0 | 60,0 | -1 |

O‘tgan yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan, Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo‘yicha taqsimlash xizmatlarida 102,7 %ni tashkil etdi.

## Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 9,3 trln. so'mni tashkil etdi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 115,7 %ni, uning jami sanoatdagi ulushi 21,0 %ni tashkil etdi.




Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 10,9 % (2021-yil yanvar-iyun oylarida 18,4 %)ni tashkil etdi. Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Zangiota tumaniga to'g'ri kelib 13,8 %ni, shuningdek, Qibray tumani – 8,4 %ni, Angren shahri – 6,9 %ni hamda Chirchiq shahri – 9,5 %ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (120,0 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Bekobod (130,1 %), Chirchiq (127,2 %) shahlarida hamda Ohangaron tumanida (157,2 %) qayd etildi.

### Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

2022- yilning yanvar-iyun oylarida



| Mlrd. | Ulushi | O'sishi |
|---|---|---|

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining jami hajmidagi eng yuqori ulush Chirchiq shahriga to‘g‘ri kelib 22,3 %ni, shuningdek, Qibray tumanida – 4,5 %ni, Toshkent tumanida – 6,5 %ni, Zangiota tumanida 6,1 %ni tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida yuqori ko‘rsatkich Bekobod (193,4 %) hamda Angren shaharlarida (244,3 %) qayd etildi

**Hududlar bo‘yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati**

2022- yilning yanvar-iyun oylarida

| Hudud | Mlrd. so‘m | Ulushi %da | O‘sishi %da |
|---|---|---|---|
| Toshkent viloyati | 1 591,7 | 100,0 | 209,7 |
| Nurafshon | 35,2 | 2,2 | 275,4 |
| Bo'ka | 45,2 | 2,8 | 245,3 |
| Olmaliq | 110,9 | 7,0 | 255,2 |
| Zangiota | 96,5 | 6,1 | 205,0 |
| Angren | 34,4 | 2,2 | 244,3 |
| Yuqori Chirchiq | 68,3 | 4,3 | 214,4 |
| Bekobod | 89,1 | 5,6 | 193,4 |
| Quyi Chirchiq | 39,0 | 2,5 | 246,5 |
| Ohangaron | 16,0 | 1,0 | 126,7 |
| Qibray | 71,8 | 4,5 | 243,1 |
| Chirchiq | 355,1 | 22,3 | 164,8 |
| Parkent | 55,8 | 3,5 | 245,5 |

| Hudud | Mlrd. so‘m | Ulushi %da | O‘sishi %da |
|---|---|---|---|
| Yangiyo'l | 26,2 | 1,6 | 218,6 |
| Piskent | 36,2 | 2,3 | 244,6 |

| Hudud | Mlrd. so‘m | Ulushi %da | O‘sishi %da |
|---|---|---|---|
| Oqqo'rg'on | 37,7 | 2,4 | 244,7 |
| O'rta Chirchiq | 50,5 | 3,2 | 230,3 |
| Ohangaron | 34,3 | 2,2 | 244,6 |
| Chinoz | 60,8 | 3,8 | 246,1 |
| Bekobod | 56,5 | 3,6 | 244,8 |
| Yangiyo'l | 74,3 | 4,7 | 241,3 |
| Bo'stonliq | 60,7 | 3,8 | 244,4 |
| Toshkent | 103,8 | 6,5 | 194,4 |

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida eng yuqori ko‘rsatkich Bekobod (244,2 %), Olmaliq (235,1 %) hamda Ohangaron shaharlarida (110,9 %) qayd etildi.

## Hududlar bo‘yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

2022- yilning yanvar-iyun oylarida

| Hudud | Mlrd. so‘m | Ulushi %da | O‘sishi %da |
|---|---|---|---|
| Toshkent viloyati | 2 611,0 | 100,0 | 145,0 |
| Nurafshon | 12,3 | 0,5 | 256,7 |
| Bo'ka | 30,4 | 1,2 | 246,1 |
| Olmaliq | 32,7 | 1,3 | 235,1 |
| Zangiota | 482,0 | 18,5 | 138,5 |

| Mlrd. so‘m | Ulushi %da | O‘sishi %da |
|---|---|---|

| Mlrd. so‘m | Ulushi %da | O‘sishi %da |
|---|---|---|

| | Mlrd. so‘m | Ulushi %da | O‘sishi %da |
|---|---|---|---|
| Angren | 161,9 | 6,2 | 123,4 |
| Qibray | 280,4 | 10,7 | 121,1 |
| Bekobod | 23,1 | 0,9 | 244,2 |
| Quyi Chirchiq | 26,2 | 1,0 | 247,3 |
| Ohangaron | 56,9 | 2,2 | 110,9 |
| Parkent | 38,0 | 1,5 | 202,7 |
| Chirchiq | 45,3 | 1,7 | 92,8 |
| Piskent | 68,0 | 2,6 | 137,7 |
| Yangiyo‘l | 30,6 | 1,2 | 102,8 |
| O‘rta Chirchiq | 74,7 | 2,9 | 123,1 |
| Oqqo‘rg‘on | 87,6 | 3,4 | 131,7 |
| Chinoz | 33,2 | 1,3 | 179,3 |
| Ohangaron | 678,5 | 26,0 | 166,3 |
| Yuqori Chirchiq | 85,4 | 3,3 | 138,4 |
| Bekobod | 38,0 | 1,5 | 245,6 |
| Toshkent | 45,6 | 1,7 | 122,9 |
| Bo‘stonliq | 119,0 | 4,6 | 207,1 |
| Yangiyo‘l | 70,4 | 2,7 | 182,7 |

## Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

2022- yilning yanvar-iyun oylarida

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 3,6 trln. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 16,7 %ni tashkil etdi.

## <u>Toshkent viloyati hududlari kesimida</u>
## <u>sanoat ishlab chiqarishi hajmlari</u>

2022- yilning yanvar-iyun oylarida

| | *Mlrd. so‘m* | *Ulushi %da* | *O‘sishi %da* |
|---|---|---|---|
| **Toshkent viloyati** | **43564** | **100** | **108,6** |
| **Nurafshon** | **513** | **1,7** | **98,1** |
| **Bo‘ka** | **241** | **0,6** | **113,4** |
| **Olmaliq** | **17591** | **40,3** | **100,9** |
| **Zangiota** | **942** | **2,2** | **102,2** |
| **Angren** | **1887** | **4,4** | **102,5** |
| **Qibray** | **2734** | **6,2** | **109,1** |
| **Bekobod** | **5378** | **12,3** | **116,5** |
| **Quyi Chirchiq** | **430** | **0,9** | **96,6** |
| **Ohangaron** | **2021** | **4,6** | **103,3** |
| **Parkent** | **242** | **0,5** | **109,4** |
| **Chirchiq** | **3248** | **7,4** | **104,1** |
| **Piskent** | **217** | **0,5** | **80,4** |
| **Yangiyo‘l** | **362** | **0,8** | **100,2** |
| **O‘rta Chirchiq** | **619** | **1,4** | **114,3** |
| | **367** | **0,8** | **97,0** |

**Oqqo‘rg‘on**

**Chinoz**

| Mlrd. so‘m | Ulushi %da | O‘sishi %da |
|---|---|---|
| 429 | 0,9 | 123,4 |

**Ohangaron**

| Mlrd. so‘m | Ulushi %da | O‘sishi %da |
|---|---|---|
| 2376 | 5,4 | 167,3 |

**Yuqori Chirchiq**

| Mlrd. so‘m | Ulushi %da | O‘sishi %da |
|---|---|---|
| 1119 | 2,5 | 109,1 |

**Bekobod**

| Mlrd. so‘m | Ulushi %da | O‘sishi %da |
|---|---|---|
| 246 | 0,5 | 96,6 |

**Toshkent**

| Mlrd. so‘m | Ulushi %da | O‘sishi %da |
|---|---|---|
| 843 | 1,9 | 98,2 |

**Bo‘stonliq**

| Mlrd. so‘m | Ulushi %da | O‘sishi %da |
|---|---|---|
| 1053 | 2,4 | 116,2 |

**Yangiyo‘l**

| Mlrd. so‘m | Ulushi %da | O‘sishi %da |
|---|---|---|
| 704 | 1,6 | 99,1 |

## Toshkent viloyati hududlari kesimida ishlab chiqarish fizik hajm indeksi, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o‘sish sur‘ati, %da



Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish Olmaliq (2021- yilning yanvar-iyun oyiga nisbatan 102,0 %), Bekobod (116,1 %) shahrida hamda Zangiota tumanida (137,6 %) sezilarli darajada oshdi.

**Toshkent viloyatida jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, %da**

Viloyatda sanoat ishlab chiqarishi hajmi tarkibida eng ko‘p ulush Olmaliq (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 38,7 %) hamda Bekobod (12,9 %), Chirchiq (5,4%), Angren (4,3%) va Ohangaron (3,5 %) shaharlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Eng past ko‘rsatkich esa Parkent (0,3 %) hamda Bekobod (0,3 %) tumanlariga to‘g‘ri kelmoqda.






Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Olmaliq (46514,9 ming so‘m), Ohangaron (18474,7 ming so‘m) va Bekobod (16386,6 ming so‘m) shaharlarida o‘rtacha viloyat darajasi ko‘rsatkichidan (7132,1 ming so‘m) ancha yuqoriligini ko‘rsatmoqda.

Viloyat bo‘yicha aholi jon boshiga iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 1426,1 ming so‘m bo‘lgani holda, Ohangaron shahrida – 1818,3 ming so‘mni,

Zangiota tumanida – 4289,7 ming so‘mni, Qibray tumanida – 2041,0 ming so‘mni, Chirchiq shahrida 4999,5 ming so‘mni tashkil.

## Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari va iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

*2022- yilning yanvar-iyun oylarida, ming so‘m*

| Hudud | *Sanoat mahsulotlari* | *Iste’mol mahsulotlari* |
|---|---|---|
| **Toshkent viloyati** | 7 132,1 | 1426,1 |

| Hudud | *Sanoat mahsulotlari* | *Iste’mol mahsulotlari* |
|---|---|---|
| Nurafshon | 2293,0 | 350,0 |
| Bo‘ka | 1451,2 | 673,5 |
| Olmaliq | 46514,9 | 820,8 |
| Zangiota | 11472,4 | 4289,7 |
| Angren | 9073,6 | 2878,8 |
| Qibray | 7824,4 | 2041,0 |
| Ohangaron | 18474,7 | 1818,3 |
| Quyi Chirchiq | 1074,4 | 390,5 |
| Bekobod | 16386,6 | 678,7 |
| Parkent | 641,8 | 904,2 |
| Chirchiq | 14184,8 | 4999,5 |
| Piskent | 723,4 | 780,6 |
| Yangiyo‘l | 1649,1 | 709,1 |
| O‘rta Chirchiq | 2545,5 | 896,8 |

| | Sanoat mahsulotlari | Iste’mol mahsulotlari |
|---|---|---|
| Oqqo‘rg‘on | 1519,4 | 1461,4 |
| Chinoz | 1043,2 | 488,5 |
| Ohangaron | 7771,4 | 4434,6 |
| Yuqori Chirchiq | 2065,0 | 889,4 |
| Bekobod | 402,7 | 545,9 |
| Toshkent | 2385,8 | 793,9 |
| Bo‘stonliq | 2795,8 | 1377,6 |
| Yangiyo‘l | 1778,4 | 769,2 |

## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

*2022- yilning yanvar-iyun oylarida, %da*

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 3,0 trln. so‘mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 14,2 %ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Bekobod (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi (98,1 %), Parkent (90,1%), Quyi Chirchiq (53,2 %), Toshkent (72,1 %) tumanlarida kuzatildi.






Hududlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko‘rsatdiki, Olmaliq (1,7 %), Bekobod (1,7 %) va Chirchiq (12,4 %) shaharlarida sanoat ishlab chiqarish hajmidagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

## Toshkent viloyatida yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

*(2022- yil yanvar-iyun oylarida)*

2022- yilning yanvar-iyun oylarida viloyatda 718 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 46 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari hajmidagi ulushi 6,4 %) Qibray tumanida, 80 tasi (11,1 %) Zangiota tumanida, 53 tasi (7,3%) Toshkent tumanida, 44 tasi (6,1 %) Yangiyo'l tumanida, 31 tasi (4,3 %) Yuqori Chirchiq tumanida tashkil etildi.

**Yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari**

*(2022- yil yanvar-iyun oylarida)*

